

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR

Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna

“Ma‘mun universiteti” NTM,
“Biznesni boshqarish” kafedrası dotsenti, PhD.

E-mail: yusupova0155@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlarining shakllanish jarayoni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda klaster tizimining iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar keng qamrovli tahlil qilindi. Paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab uni chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan qiymat zanjiri bo‘yicha barcha jarayonlar mutasaddi vazirlik va idoralardan olingan ma‘lumotlar asosida o‘rganildi. Shuningdek xorij tajribasi mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda paxta yetishtiruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar va eksportchilar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: klaster, optimal, mexanizm, mezon, metodologiya, korxonalar, omillar, iqtisodiy munosabatlar, takomillashtirish.

Аннотация

В статье представлен всесторонний анализ процесса формирования хлопково-текстильных кластеров в Узбекистане, этапов их развития и основных факторов, влияющих на экономическую эффективность кластерной системы. Изучены все процессы по всей цепочке создания стоимости, от выращивания хлопкового сырья до его глубокой переработки и производства готовой продукции, на основе информации, полученной от соответствующих министерств и ведомств. Кроме того, разработаны научные основы для оптимизации взаимовыгодных экономических отношений между хлопкопроизводителями, перерабатывающими предприятиями и экспортерами, с адаптацией зарубежного опыта к местным условиям.

Ключевые слова: кластер, оптимальный, механизм, критерий, методология, предприятия, факторы, экономические отношения, улучшение.

Abstract

This article presents a comprehensive analysis of the formation of cotton-textile clusters in Uzbekistan, the stages of their development, and the main factors influencing the economic efficiency of the cluster system. All processes along the entire value chain, from cotton cultivation to advanced processing and finished product production, were studied based on information received from relevant ministries and agencies. In addition, scientific foundations have been developed for optimizing mutually beneficial economic relations between cotton producers, processing plants, and exporters, with the adaptation of foreign experience to local conditions.

Keywords: cluster, optimal, mechanism, criterion, methodology, enterprises, factors, economic relations, improvement.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, qishloq xo‘jaligi, paxta yetishtirish va to‘qimachilik sanoatini integratsiyalashgan holda rivojlantirish, klaster tizimini joriy etish milliy iqtisodiyotning strategik yo‘nalishiga aylandi. Paxta yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun qiymat zanjirini yagona boshqaruv ostida shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, eksport salohiyatini oshirish va ichki qayta ishlash darajasini ko‘tarish klaster tizimining asosiy maqsadlaridir. Shu sababli, paxta-to‘qimachilik klasterlarini optimal tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlar, matematik modellar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi va boshqaruvning yangi mexanizmlarini shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster rivojlanishi nazariyasining asoschisi amerikalik olim M. Porter bo‘lib, uning xizmatlari shundaki, u birinchilardan bo‘lib turli mamlakatlardagi 100 dan ortiq sohalarning iqtisodiy manfaatdorligi, mahsulotlarning raqobatbardoshligi, ilmiy-amaliy tajribalarga tayangan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishish maqsadida ushbu muammoni o‘rgangan [7],[8].

R. MacDonald va P. L. Kennedy AQShda paxta yetishtirish tizimi yuqori darajada mexanizatsiyalashganini hamda qayta ishlash korxonalari fermer xo‘jaliklari bilan shartnoma asosida ishlashini ta’kidlaydi. Ular paxta yetishtirishda raqamli monitoring, suv tejovchi texnologiyalar va kontraktlash tizimining ustunliklarini alohida ko‘rsatib o‘tadilar [9].

V. I. Malyuk yozadiki, “xarajatlarni optimallashtirish ishlab chiqarish maydonchalari, ta’minot zanjirlari va logistik infratuzilmani loyihalashtirishda asosiy maqsad bo‘lgan. Ishlab chiqarish uchun bu amalda yirik korxonalardagi quvvatlarni bir yoki kam sarfli bir nechta mamlakatda konsentratsiyalashni ifodalab, bu zahira va ortiqcha quvvatlar yo‘qotishlarga tenglashtiriladigan to‘qimachilik sanoati uchun xosdir” [10].

Yevropa bozoriga yaqinligi, logistika afzalliklari, brending siyosati va eksport marketingi kuchli bo‘lgan klaster tizimi mavjud. E. Akgul va boshqalar klasterlarda boshqaruvning moslashuvchan mexanizmlarini alohida ta’kidlaydi [11].

M. Abdullayev to‘qimachilik klasterlarida eksport zanjirini optimallashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va brend yaratish strategiyalarini ilmiy asoslaydi [12].

O. D. Jo‘raboyev ta’kidlab o‘tadiki, “paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish nafaqat xomashyo ishlab chiqaruvchilari va uni qayta ishlovchilar, balki turdosh tarmoqlar korxonalari: ishlab chiqarish vositalari ta’minotchilari, moliyaviy institutlar, bozor infratuzilmasi subyektlari, davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va shu kabilarning ham tarmoqlararo aloqalari rivojlanishi hamda kengayishiga yordam beradi” [13].

O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish nuqtai nazaridan M. M. Qoraboyev quyidagi kategoriyalarni ajratib ko‘rsatadi: “birinchi kategoriya – bu

mavjud to'qimachilik korxonalariga birlashtirilgan bir nechta fermer xo'jaliklari, ikkinchi kategoriya esa – yangi investitsiyalar asosida tashkil etiladigan ko'p tarmoqli klasterlar" [14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, klasterlarni optimal tartibga solish uchun iqtisodiy-matematik modellar, shaffof shartnomaviy munosabatlar, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Shu asosda paxta-to'qimachilik klasterlarining samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

METODOLOGIYA

Paxta-to'qimachilik klasterlarining samaradorligini oshirish uchun tizimli tahlil va kompleks yondashuv hamda taqqoslash uslublari qo'llanildi. Klaster ichidagi barcha bo'g'inlar (paxta yetishtirish, qayta ishlash, ip-gazlama ishlab chiqarish, eksport) o'zaro integrallikda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy va o'zbek iqtisodchi olimlarning bozor munosabatlariga oid fikrlariga ko'ra, bozor tizimi jamiyatning ijodiy va mehnat salohiyatini ochib beruvchi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik muhitini rag'batlantiruvchi asosiy mexanizm sifatida tan olingan. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishni iste'molchilarning ehtiyojlariga moslashtirish, mahsulotga bo'lgan talabni aniq hisobga olish, konyunktura o'zgarishlariga qarab ish yuritish, tannarxni izchil kamaytirish hamda ilm-fan va texnologiyaning so'nggi yutuqlarini tatbiq etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyotining muhim tamoyili - nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish va kim uchun ishlab chiqarish masalalari ishlab chiqaruvchilar tomonidan talab, taklif va narx-navoga asoslanib hal qilinadi. Shu bois, paxta-to'qimachilik klasterlarida bozor iqtisodiyoti tamoyillari qanchalik amalga oshirilayotganini o'rganish maqsadida ayrim klasterlar misolida tahlil olib borish maqsadga muvofiqdir.

Paxta-to'qimachilik klasterlari bir nechta xo'jalik subyektlarining – urug' yetishtirish, plyonka ishlab chiqarish (ba'zi viloyatlarda), paxta xomashyosini yetishtirish, paxtani qayta ishlash zavodi, ip yigiruv fabrikasi, to'qimachilik korxonasi, bo'yoq va tikuvchilik korxonalari – o'zaro hamkorlikdagi faoliyatidan iboratdir. Bu tizim orqali barcha subyektlar bir maqsad sari birlashib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozordagi talabni qondirishga intiladi.

Ko'plab mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-oktyabrdagi PQ-3279-son "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga¹ muvofiq birinchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida «Bek cluster» MCHJ QK shaklidagi klaster tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-oktyabrdagi PQ-3279-son "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3352683>

to'g'risida"¹, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"², 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"³ Farmonlari³ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qildi.

Qisqa vaqt ichida respublikamizning barcha viloyatlarida paxta-to'qimachilik klasterlarining paydo bo'lishiga huquqiy asos yaratildi. Birinchi jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, 2023-yil holatiga ko'ra respublikamizda faoliyat yuritayotgan 143 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 1012,5 ming gektar yer maydonida 3800,6 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirildi. Klasterlar tashkil qilinishidan avval paxta xomashyosi yetishtirish o'rtacha 29 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 33 sentner, 2022-yilda 34 sentner, 2023-yilda esa 38 sentnerni tashkil etgan. Shuningdek, viloyatlar kesimida o'rtacha uch yillik ko'rsatkich Toshkent viloyatida 7 sentner, Sirdaryo viloyatida 6,2 sentner, Surxondaryo viloyatida 6,8 sentner, Navoiy viloyatida 6,5 sentner va Qashqadaryo viloyatida 7 sentner o'sish sur'atlari qayd etilganligini 1-jadvaldan ko'rish mumkin [15, 16]. Klaster tizimi joriy qilinishi paxta xomashyosi yetishtirish samaradorligining ortishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganligi statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdi. Biroq, bu natijalar yetarlimi (1-jadval)?

1-jadval.

Paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan yetishtirilgan paxta xomashyosi va hosildorlik ko'rsatkichlari⁴

Hududlar nomi	Klasterlar soni	Yer maydoni gektar	2023-yilda yetishtirilgan paxta xomashyosi tonna	Hosildorlik s/ga				
				Tashkil etilgunga qadar	2021-yilda	2022-yilda	2023-yilda	O'zgarishi, foiz
Jami	143	1012587	3800680	29	33	34	38	33
Qashqadaryo	19	133050	471681	26	31	33	35	37
Navoiy	4	28155	109952	29,9	33,8	36,3	39	33
Surxondaryo	12	72270	290284	29,8	35,1	35,4	39,5	34
Sirdaryo	9	77500	300249	28	31,5	32,6	38,5	49
Toshkent	7	70161	273114	29,3	34,5	35,6	38,7	34
Qolgan viloyatlar	92	631451	2355400					

Paxta xomashyosi yetishtirishning yuqori ko'rsatkichlariga erisha oldikmi? Paxta xomashyosini yetishtirish va sotish jarayonlarida bozor munosabatlarining talablariga rioya eta olyapmizmi? Shuningdek, to'qimachilik sanoatining asosi bo'lgan paxta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5731033>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 10-yanvar PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6351331>

⁴ Muallif ishlanmasi

xomashyosini yetishtirish bo'yicha ilmga tayanyapmizmi, zamonaviy bio-, nano-texnologiyalarni joriy qilish orqali paxta hosildorligini oshirish, hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda g'ozaning serhosil, tezpushar, tola sifati yuqori, turli kasalliklarga bardoshli va ekologik toza navlarini yarata olyapmizmi? Bu savollarga javoban jahon amaliyotiga nazar solishimiz va samarali foydalanilayotgan tajribalardan foydalanishimiz, ayniqsa, paxta yetishtiruvchilar ishiga aralashishga barham berish va erkin raqobat muhitini yaratish bo'yicha qadam tashlashimiz, bu borada qishloq xo'jaligi sohasida tubdan islohotlar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish natijasida qishloq xo'jaligi sohasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida so'nggi 5 yilda qishloq xo'jaligi va "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" bo'lgan qiymat zanjirini yaratishga 6,3 mlrd dollar investitsiya o'zlashtirildi. Natijada tolani qayta ishlash 2,5 baravar, ip-kalava ishlab chiqarish 2 baravar, tayyor mahsulot ishlab chiqarish 3 baravar ortib, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3,5 mlrd dollarga yetdi. Agroklasterlarda jami 224 796 nafar ishchining bandligi ta'minlandi, jumladan, 2023-yilga kelib agroklasterlarda 45,9 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. So'nggi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 485 milliard so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Mazkur loyihalarni amalga oshirishda yer resurslari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta-to'qimachilik klasterlarini optimal tartibga solishning metodologik asoslari kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, klaster tizimi paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishgacha bo'lgan uzluksiz qiymat zanjirini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, klasterlarni optimal tartibga solish jarayonida iqtisodiy, tashkiliy va institutsional omillarni uyg'unlashtirish zarur. Xususan, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda klaster ishtirokchilari o'rtasida manfaatlar muvozanatini ta'minlash muhim yo'nalishlar sifatida aniqlandi.

Shuningdek, taklif etilgan metodologiya klasterlar samaradorligini baholashda ko'p mezonli yondashuvdan foydalanishni, ya'ni hosildorlik, xomashyo sifati, qayta ishlash chuqurligi, eksport salohiyati va moliyaviy barqarorlik kabi ko'rsatkichlarni birgalikda hisobga olishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv klasterlar faoliyatini hududlar kesimida optimallashtirish, ularni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari manzilli amalga oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan metodologiya paxta-to'qimachilik klasterlarining raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyasini chuqurlashtirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko'paytirish hamda mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari amaliyotda klasterlarni samarali boshqarish va ularni

barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-oktyabrdagi PQ-3279-son "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3352683>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5731033>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 10-yanvar PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6351331>
5. Jo'rayev F.D. Agroklaster tizimini optimallashtirishning ekonometrik modellashtirish strategiyasi. Marketing jurnali. 9-son, 2024. – 417-426 b. /
6. Juraev F.D. Econometric Modeling of Intensity Measures of Resource Efficiency in Agrocluster Networks. American Journal of Economics and Business Management, 8(3), 2025. -1075–1083. / https://globalresearchnetwork.us/index.php/aje_bm/article/view/3389
7. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
8. Porter M.E. Locations, Clusters, and Company Strategy // Oxford Handbook of Economic Geography. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
9. MacDonald, J. M., P. L. Kennedy. Does Contracting Raise Farm Productivity. American Journal of Agricultural Economics, 88(2), 414–427.
10. Малюк В. И. Производственный менеджмент. – М.: Юрайт. 2024, с.148
11. Akgul, E., et al. (2013). Cluster management flexibility and innovation mechanisms. Journal of Industrial Development, 8(2), 45–59
12. Abdullayev, M.. Optimization of export chain, reduction of logistics costs and brand creation strategies in textile clusters. Journal of Textile and Industrial Economics, 2024. 5(2), 45–58.
13. Джурабаев О.Д. Современное состояние и уровень развития производительных сил хлопково-текстильных кластеров// Journal of marketing, business and management. – 2023. – т.2.- №4. С.19
14. Корабаев М.М. Кластерная система в Узбекистане: проблемы и решения// JMBM. 2022. №6. с. 106
15. <https://www.agro.uz/charts>
16. <https://stat.uz/uz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**